

"IKKI ESHIK ORASI" — O'TKIR HOSHIMOV**Ibrohimova Mohlaroy Abdubannob qizi***Qo'qon Davlat Universiteti 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya. "Ikki eshik orasi" – o'zbek yozuvchisi O'tkir Hoshimov qalamiga mansub roman. Asar O'tkir Hoshimov merosining asosiy o'rinlardan birini egallaydi¹. Roman ilk marotaba 1985-yilda chop etilgan. Asarda insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligini mahorat bilan tasvirlangan. Adib, birinchi navbatda, tinchlikka rahna solgan urushni tilga oladi. Ayniqsa, urush voqeligining har bir ota-ona qalbini jarohatlagani, ko'ngillariga ozor yetkazgani romanning umuminsoniy pafosini tashkil etadi. Adib qalamga olgan obrazlari oddiy odamlarning fazilatlari – mardligi, matonati, vatanparvarligi va sabr-bardoshi haqida so'zlaydi. Tajribali yozuvchi roman hodisalarini teran o'rgangani uchun har bir epizod o'quvchini qalbiga jiddiy ta'sir qiladi. Asarda tasvirlangan hayot manzaralari, insonlararo munosabatlar shuningdek, yozuvchining o'ziga xos badiiy uslubi juda tabiiy hamda samimiyligi bilan ajralib turadi. Yetti qism, qirq yetti bobdan tarkib topgan roman kompozitsion qurilishi jihatidan ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi². Undagi voqea-hodisalar bayonida qatnashgan to'qqizta personaj hikoyalarini adib bir-biriga ustalik bilan bog'lagan.

Kalit so'zlar: asar, roman, meros, qalb, personaj, tahlil, obraz, asosiy, badiiy, o'ziga xos.

Kirish

"Ikki eshik orasi" romanidagi Orif oqsoqol, Husan Duma, Komil tabib kabi obrazlarni yoritib bergan. Ayniqsa, Orif oqsoqol obrazi romanga ko'rk bag'ishlaydi. Uning insonparvarligi, odamlar orasida qozongan obro'-e'tibori, eng og'ir damlarda qiyinchiliklarni yengib o'tishga kuch topishi bilan o'quvchi xotirasiga muhrlanadi. U donishmand, tajribali, hayotning achchiq-chuchugini tatib ko'rgan o'zbek qariyalariga o'xshab har bir ishda tashabbuskorlikni o'z qo'liga oladi. Shu bilan birga asarda Robiya ismli ayol qahramon ham mavjud. O'tkir Hoshimov o'z romani haqida va shu orqali dilidagi so'zlarni ham aytib o'tgan: „Rost bilan yolg'onning o'rtasi — to'rt enlik“, degan gap bor. Qiziq, nega endi oz emas, ko'p emas, to'rt enlik? Gap shundaki, ko'z bilan quloqning orasi — to'rt enlik ekan. Eshitganingga emas, ko'rganingga ishon ... Maqsad — shu. Bu kitobdagi ko'p odamlarni o'zim ko'rganman. Ko'plari bilan gaplashganman. Ba'zilarining o'zi bilan, ba'zilarining ... ruhi bilan ... Ba'zilar nimani gapirgan bo'lsa, shuni qog'ozga tushirdim. Ba'zilar nima gapirganini emas, nima o'ylaganini yozishga majbur bo'ldim. (Nachora, hamma rost gapiravermaydi)³

Tadqiqot metodologiyasi

Umar zakunchi O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanidagi salbiy va ziddiyatli qahramonlardan biridir. U mansabparastlik, bag'ritoshlik, xiyonat va ma'naviy tubanlik timsoli sifatida tasvirlangan. Muallif ushbu obraz orqali jamiyatdagi adolatsizlik, vijdotsizlik va manfaatparastlik kabi illatlarni fosh etadi. Umar zakunchi amal va mansabga o'ta hirs qo'ygan inson bo'lib, raislik lavozimini egallagach, o'zidan

pastdagilarni kamsitadi, ularga zulm o'tkazadi, yuqori lavozimdagilarga esa yaltoqlanib yashaydi. Uning qalbida mehr-shafqat va insoniylik tuyg'ulari deyarli yo'q. U odamlarga qattiqqo'l va shafqatsiz munosabatda bo'lib, urush davrining og'ir sharoitlaridan ham shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanishga urinadi. Hatto oilaviy muqaddas qadriyatlarni ham oyoqosti qiladi. Asarda Umar zakunchi voqealar rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan obrazlardan biri hisoblanadi. Muallif uning timsolida nopok, vijdotsiz va manfaatchi kishilar oxir-oqibat ma'naviy tanazzul, iztirob va yolg'izlikka mahkum bo'lishini badiiy jihatdan ishonarli tasvirlaydi.

Asarning asosiy va esda qolarli qahramonlari: Orif Oqsoqol, Qora amma va Ra'nodir. Orif Oqsoqol – Mahalla va el o'rtasida katta obro'-e'tibor qozongan, donishmand, insonparvar va ko'pni ko'rgan nuroniy oqsoqol. U og'ir urush va qiyin davrlarda ham elga suyanch bo'ladi. Qora amma – Sabr-toqat, matonat va mehr-oqibat ramzi bo'lgan o'zbek onasi. U urushda o'g'li Kimsanni yo'qotishiga qaramay, qalbida ezgulikni saqlab qoladi. Ra'no – Taqdir sinovlari va o'z zaifligi, nafi hamda xatolari sababli og'ir fojiali yo'lni bosib o'tgan, vijdon azobida qolgan ayol obrazi. Robiya – Sof muhabbat va sadoqat timsoli, og'ir qismatni mardona yengib o'tishga harakat qilgan qahramon. Kimsan – Qora ammaning o'g'li, Robiyaning sevgilisi, urushga ketib qaytmagan navqiron yigit. Husan Duma va Komil Tabib – Qishloq hayotida o'ziga xos xarakterga ega bo'lgan, voqealar rivojida muhim o'rin tutuvchi mahalliy kishilar.

Tahlil va natija

Asardagi insonlar hayoti oddiy qishloq tasviri, mehnatkash insonlar davrasi bilan boshlanadi. Biroq betashvish damlar uzoqqa cho'zilmasligi asar voqealari rivojida ma'lum bo'ladi. Onasidan erta yetim qolgan jajji qizaloq Robiya, "suyanchim bo'ladi" deb katta qilingan sho'x bolakay Kimsan, o'zbek onalariga xos matonatni, insonparvarlikni o'zida namoyon etgan Qora amma obrazlari orqali asar jilolangan va to'la to'kis chiqqan. Asar muqaddimasidan o'qishni boshlagan kitobxon hikoyalar shu tarzda ya'ni Robiya kimsanlarning uyiga kelganidan so'ng o'smir yoshiga yetib bir-birini yoqtirib qoladi, to'ylari bo'ladi va baxtli yashashadi deb o'ylashadi. Ammo ularning baxti boshlanmasdan yakun topadi. Nomi ham o'zi kabi sovuq bo'lgan bu urush ko'pgina mard yigitlar bilan birga front orqasidagi oddiy xalqni ham yostig'ini quritadi. Urush boshlanishi bilan Robiyaning suyuklisi Kimsan ham Qora ammaning joni jigari ukasi ham urushga ketadi. Shomurodning yosh xotini Ra'no esa yolg'iz qoladi. Ayni shu paytda voqealar rivoji boshlanadi. Asar maydoniga Umar zakunchi ismli shafqat bilmas kimsa kirib keladi va diyonatli, o'z tili bilan aytganda "belida belbog'i bor" Orif oqsoqol buvani o'rnini egallaydi. Xalqqa ko'p zahmat chektirgan va ozor bergani yetmagandek, Zakunchi urushga ketgan Shomurodning xotini Ra'noga ham ko'z olaytiradi. Ra'no ham yosh va soddaligi sababli uning gaplariga laqqa tushadi. "ada" siga xiyonat bo'lganini Robiya bilib qoladi. Robiyaning taqdiri ham ayanchli... Sovchi ustiga sovchi kela boshlanganlagiga qaramay Robiya ularga rad javob berishdan charchamaydi. Ayni shu paytda Uning sevisiga naqadar vafoli ekanligi seziladi. Xalqqa foydasi tegishini xohlagan Robiya Bashoratxon ismli "erkaklardan qolishmaydigan" mard ayolga shogird tushib traktor haydashni o'rganadi. Bu orada Qora ammaning ukasi

urushdan bir oyog'i cho'loq holda qaytadi . Ammo Kimsanning daragi chiqmaydi . Aksincha vaqt o'tib undan "qora xat"keladi. Ayni damda yuragi parchalangan mushtipar ona, qalbi titrayorgan , suyganini qaytib ko'rolmasligidan larzaga kelgan chorasiz qizni qanday holda ekanligini tasavvur qilish qiyin... Bo'lgan voqealarga qaramasdan Robiya umidini uzmaydi . Biroq Kimsan kelmaydi... U urushda nemis qo'shinlari boshlig'ini o'ldirib mardlarcha halok bo'ladi. Vaqt o'tib Shomurod Muzaffar ismli o'g'illi bo'ladi va o'ziga qilingan xiyonatni bilibqoladi . Ra'no esa Umar Zakunchi bilan qochib ketishiga to'g'ri keladi . Muzaffar katta bo'lavergani sayin uni katta qilish , tarbiya qilish qiyinlashib boradi . Shu boisdan Qora amma Robiyani Shomurodga berishga qaror qiladi . Bu bir ona uchun qanchalik qiyin bo'lmasin Qora amma shunday qilishga majbur edi. Asar davomida Qora amma qarori xato bo'lmaganini tushunadi . Kimsan bilan Robiya esa bir-biriga yetishish orzusidan benasib qoladi. Vaqt o'tib Kimsanning haykalini shahar maydonida ko'rgan ona uni bag'riga bosib yig'laydi, Robiya uni tinchlantirishga urinarkan ayni damda o'z ichidan ham zil o'tayotgan bo'ladi . Haykal esa chindan ham Kimsanniki edi . Uning ruhi esa sevgani va volidasini o'z yonida ko'rgach, " ana oyim! O'n qadam narida , kaftini tizzasiga qo'yib , ma'yus ko'zlarini olisga tikib o'tiribdi. Xuddi eshik oldiga chiqib botib borayotgan quyoshga termilgan ko'yi yo'l poylayotgandek..." "Onajonim bir hovuch suyak bo'lib qolibdi . Sochlari oppoq... O'shanda vokzalga kuzatib chiqqanida bunchalik emasdi . Faqat ko'zlari o'sha... Boshimni silagan qo'llari o'sha... Uyam meni tanidi. Darrov tanidi! Onamning ko'zyoshi yuzimga tekkanida yupatdim." "Oyijon! Nega yiglaysiz ? Mana diydor ko'rishdik-ku!" "Sezdim Robiya ham meni tanidi . Yuzini yuzimga qo'yib yig'ladi. U ham o'zgaribdi . Sochlari qandoq uzun edi!",- degancha qalbidagi mungli so'zlarni izhor qiladi . Asarning ayni shu qismi yozuvchimizning qanchalik so'z mahorati ustasi ekanligini ko'rsatadi. Muallif buni ruh tilidan so'zlagan . Ayni shu yerda inson ruhiyatining tasviriy ifodasini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Yuraklarni larzaga keltirgan bunday so'zlar miyadan emas qalbdan chiqadi. Qachonki yozuvchining yuragi so'zlasa uning ifodasi chehrasida namoyon bo'ladi. O'tkir Hoshimov ko'pchilik yoddan o'chmas asar va hikoyalarida ruhiyat orqali so'zlaydi .Yillar o'tib urush tugaydi . Muzaffarning ukasi Omon dunyoga keladi . Muzaffar katta bo'lib o'qimishli , aqlli , farosatli yigit bo'ladi. Ammo bularning barchasi birvarakayiga sodir bo'lmaydi. Orada qanchadan qancha azoblar tortiladi , ko'z yoshlar to'kiladi , aziz va qadrli bo'lgan insonlar bu dunyoni tark etishadi. Muzaffarning onasi uni o'zi bilan olib ketishga harakat qiladi ammo bunga erisholmaydi . Boshqalarning qistovi bilan onasini birovga ko'rib kelishga borgan Muzaffarni Ra'no bir necha kun yashashga ko'ndiradi . Umar zakunchining ahmoq va nodon kimsaligi tufayli bechora yigit kelganiga pushaymon bo'ladi. "Qayoqdan keldi bu Shomurod cho'loqning itvachchasi. Hammasiga manavi jodugar aybdor! Shu chaqirgan !"Muzaffar shuncha xo'rlanishiga qaramay, Umar Zakunchiga qasd qilishga harakat qilmaydi .Yoshlikdan sevgan qizi Munavvar o'zining shirxo'rasi ya'ni singlisi bo'lib chiqqaniesa taqdirning Muzaffarga qilgan eng katta shafqatsizligidir.Muzaffar qancha urinmasin bashorat xola qizini unga bermasligi va Muzaffarni uyidan urib haydashini sababi ham shu bo'ladi . Bunga esa onasining shu qatori Umar zakunchining ham aybi bor. Oxir oqibat yigit

sevgani Munavvardan ayrilib qoladi. Suyganidan ayrilgan Muzaffar bunday ayriliqqa chidashi juda qiyin bo'ladi. Chunki har bir inson, albatt, juftisiz, suyanchig'i va hayotining mazmunisiz yashash mushkul. Asar Munavvarning o'limi bilan yakunlanadi. Romandan xulosalarimni aytadigan bo'lsam, adib asarni shu darajada mukammal yozganki, bu asarni kitobxon bir marotaba o'qigani bilan anglab mag'zini to'laqonli chaqa olmaydi, qachonki asardagi kichik hikoyalar ketma-ket tahlil qilinsa, mazmun to'laqonli kelib chiqadi. Asardagi barcha ayanchli voqealarning asl sababi urush deb bilaman. Chunki agar misol sifatida aytadigan bo'lsak, Muzaffarning tirik yetim qolishi, kimsanning o'limi sevishgan qalblarning bir-biriga yetisha olmasligi, Orif boboning farzandlari va xotinidan ayrilib oilasi parokanda bo'lishi, komil tabib deb atalgan personajning o'g'lidan ayrilishi, Ra'noning o'z-o'zini pushaymon qildiruvchi ishlari, jamiyatning og'ir ahvolda yashashi va boshqalarning sababi bu urush deb bilaman. "Bir kun urush bo'lgan joydan qirq kun baraka ketadi" deganlaridek ketma-ket urushlar ta'siri bilan xalqning sillasi quriydi. Jamiyatni kim ham eshitardi...?! Faqat buyruq berishdan o'zgasiga yaramaydigan sobiq SSSR xalqni ham molidan qolaversa jonidan ham judo qiladi. O'zbek xalqi sodda va rahmdil xalq. Farzandlari uchun hech nimani ayamaydi. O'zi yemaydi farzandlariga yediradi, o'zi kiymaydi farzandlariga kiydiradi. Buni asardagi Qora amma timsolida ham ko'rishimiz mumkin. Frontda xizmat qilgan o'g'lonlarimiz esa oilasi bag'ridan kechib, jon berib, jon olib, qon yutib qon kechib, vatanining oilasining shani va himoyasi uchun jang qilishadi. Asar mana shunday voqealar asnosida qurilgan. O'zbek adabiyotining o'lmas va zabardast ijodkori bo'lmish O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" va boshqa asrlariga tan bermaslikning iloji yo'q.

Xulosa qilib aytganda, jayotning qisqaligi asarning asosiy g'oyalaridan biridir. Tug'ilish – birinchi eshik, o'lim esa ikkinchi eshik bo'lib, ana shu ikki eshik oralig'ida insonning asl qiyofasi, fe'l-atvori va ma'naviy dunyosi namoyon bo'ladi. Asarda urushning dahshatli oqibatlari ham chuqur tasvirlangan. Urush minglab begunoh insonlarning taqdirini izdan chiqarib, xalq boshiga cheksiz kulfat va ayriliqlar olib kelgani yaqqol ko'rsatiladi. Shu bilan birga, har qanday og'ir sharoitda ham inson o'z vijdoni, halolligi, qadr-qimmatini va insoniyligini saqlab qolishi lozimligi ta'kidlanadi. Asardan olinadigan hayotiy saboqlar ham nihoyatda muhimdir. Inson bu dunyoda boyligi yoki mansabi bilan emas, balki qilgan ezgu ishlari, yaxshiliklari bilan yaxshi nom qoldiradi. Asar qahramonlari taqdiri orqali og'ir sinovlarga duch kelganda sabr-toqatli, matonatli bo'lish zarurligi ko'rsatiladi. Shuningdek, tinch va osoyishta hayotning qadriga yetish, har bir lahzani qadrlash va tinchlikni asrab-avaylash asarning eng muhim xulosalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston-milliy-ensiklopediyasi-v2.html
2. „arxiv nusxasi“. 2021-yil 21-dekabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2021-yil 21-dekabr.



3.http://ferlibrary.uz/f/ikki_eshik_orasi.pdf

4."O'TKIR HOSHIMOVNING "IKKI ESHIK ORASI" ASARINING BADIY TAHLILI"Usarova Laylo Ibragimovna.

5."Ikki eshik orasi" O'tkir Hoshimov

